



# OLY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

TA'LIM TIZIMI MENEJMENTI  
VA  
TA'LIM SIFATI MENEJMENTI

2024

LIB.BIMM.UZ

**OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY  
KOMPETENSIYALAR moduli bo'yicha**

(Oliy ta'lim muassasalari O'quv ishlari bo'yicha prorektorlari, o'quv-uslubiy boshqarma boshliqlari, dekan va o'quv ishlari bo'yicha dekan muovinklari, kafedra mudirlari va o'quv ishlari bo'yicha mas'ul rahbarlar uchun)

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Toshkent – 2024**

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:** **F.Zakirova** - pedagogika fanlari doktori, professor  
**A.S.Djuraev**- p.f.b.f.d. (PhD), dotsent

**Taqrizchi:** **B.Sh.Usmonov** - texnika fanlari doktori, dotsent

O‘quv-uslubiy majmua Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan  
(“28” dekabr 2023-yildagi 5/4 -sonli bayonoma)

## MUNDARIJA

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>5</b>
<b>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA‘LIM METODLARI.....</b>	<b>11</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR .....</b>	<b>20</b>
<b>IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>43</b>
<b>V. GLOSSARIY.....</b>	<b>56</b>
<b>VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>	<b>62</b>



# I. ISHCHI DASTUR

# I. ISHCHI DASTUR

## *KIRISH*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi”da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta‘lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi mamlakatlari diplomlarini o‘zaro tan olishga, o‘qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi 1999 yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilish masalasini ko‘rib chiqish belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta‘lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta‘lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019- yil 8- oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ga ko‘ra mamlakatdagi oliy ta‘lim muassasalarining 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan. Bu yaqin yillar davomida mamlakatdagi deyarli barcha oliy ta‘lim muassasalarining kredit-modul tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi.

Shuningdek, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikada ta‘lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta‘lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta‘lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu dasturda ta‘limni raqamlashtirish sharoitida o‘quv jarayonini tashkil

etishda 21-asr kompetensiyalari va ularning mazmuni, ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish, 4K-kompetensiyalar: kommunikativ, kollaborativ, kretiv va kritik fikrlash kompetensiyalarining mazmun-mohiyati, o'quv jarayonini tashkil etishda 4K-kompetensiyalarini rivojlantirishning xalqaro tajribalari, ta'lim menejerining 4K-kompetensiyalarni rivojlantirish usul va vositalari, ilmiy-pedagogik faoliyatni boshqarishda kollaboratsiya va kommunikatsiyalarni tashkil etish texnologiyalari bayon etilgan.

### ***Modulning maqsadi va vazifalari***

**Modulning maqsadi:** qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarida 21-asr kompetensiyalari mazmuni, ularni rivojlantirish usul va vositalari haqidagi bilimlarini takomillashtirish, ta'limni raqamlashtirish sharoitida 21-asr kompetensiyalari asosida o'quv jarayonlarini tashkil etish, muammolarni aniqlash, tahlil etish, shuningdek, ularda oliy ta'lim muassasasini boshqarish to'g'risida ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

#### **Modulning vazifalari:**

- 21-asr kompetensiyalarni va ularning mazmunini tahlil qilish;
- 21-asr kompetensiyalar asosida ta'lim jarayonini taqomillashtirish strategiyasini tuzish;
- ta'lim jarayonini tashkil etishda 21-asr kompetensiyalarni rivojlantirish usullarini o'rganish;
- 4K-kompetensiyalarining (kommunikativ, kollaborativ, kretiv va kritik fikrlash kompetensiyalarining) rivojlantirish usul, vosita va texnologiyalarga o'rgatish;
- ta'limni raqamlashtirish sharoitida ilmiy-pedagogik faoliyatga yo'naltirilgan kommunikatsiya va kollaboratsiyalarni tashkil etish texnologiyalarini o'rganish.

### ***Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar***

“Ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy kompetensiyalar” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

#### **Tinglovchi:**

- 21-asr kompetensiyalarini va ularning mazmunini;
- ta'limni raqamlashtirish sharoitida 21-asr kompetensiyalarni rivojlantirish ahamiyatini;
- ta'lim jarayonida 4K-kompetensiyalar (kommunikativ, kollaborativ, kretiv va kritik fikrlash kompetensiyalar)ning mazmun-mohiyatini;
- ta'limni raqamlashtirish sharoitida ilmiy-pedagogik faoliyatga yo'naltirilgan kommunikatsiya va kollaboratsiyalarni tashkil etish texnologiyalari haqidagi **bilimlarga ega bo'lishi;**

- 21-asr kompetensiyalarni rivojlantirish usul va vositalarini qo'llash;
- 4K-kompetensiyalar asosida o'quv jarayoni tashkil etish;
- ta'limni raqamlashtirish sharoitida ilmiy-pedagogik faoliyatga yo'naltirilgan kommunikatsiya va kollaboratsiyalarni tashkil etish **ko'nikma va malakalarini egallashi**;
- ta'lim menejer sifatida o'z 21-asra kompetensiyalarini baholash;
- ta'lim jarayonini 4K-kompetensiyalar asosida takomillashtirish;
- ta'limni raqamlashtirish sharoitida ilmiy-pedagogik faoliyatga yo'naltirilgan kommunikatsiya va kollaboratsiyalarni tashkil etish asosida ta'lim sifatini boshqarish **kompetensiyalarni egallashi lozim.**

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy kompetensiyalar” moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi, shuningdek, ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, blis-so'rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta'lim metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

### ***Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi***

“Ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy kompetensiyalar” moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi “Raqamli universitet” modeli va oliy ta'lim jarayonini boshqarishning axborot tizimlari”, “Ta'lim menejerining innovatsion kompetentligi” kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

### ***Modulning oliy ta'limdagi o'rni***

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim va tarbiya jarayonlarini normativ-huquqiy asoslarini o'rganish, ularni tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.



## **MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI**

<b>№</b>	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Auditoriya o'quv yuklamasi</b>		
		<b>Jami</b>	<b>Nazariy</b>	<b>Amaliy mashg'ulot</b>
1.	21-asr kompetensiyalar va ularning mazmuni.	2	2	
2.	4K-kompetensiyalar va ularni rivojlantirish usullar.	2	2	
3.	Ta'lim menejering 4k-kompetensiyalari	2		2
4.	Ta'lim menejerida 4k-kompetensiyalarini rivojlantirish usul va vositalar	2		2
5.	Ilmiy-pedagogik faoliyatni boshqarishda kommunikativ va kollaboratsiyalarni tashkil etish texnologiyalari	2		2
	<b>Jami:</b>	<b>10</b>	<b>4</b>	<b>6</b>

### **NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

#### **1-MAVZU: 21-ASR KOMPETENSIYALAR VA ULARNING MAZMUNI.**

**(2 soat)**

Ta'lim menejerining asosiy funksiyalari. Umumiy, kasbiy va shaxsiy kompetentlik. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida 21-asr kompetensiyalar, ularning mazmuni va rivojlantirish ahamiyati.

#### **2-MAVZU: 4K-KOMPETENSIYALAR VA ULARNI RIVOJLANTIRISH USULLAR. (2 soat)**

Ta'lim menejering 4K-kompetensiyalari: kommunikativ, kollaborativ, kreativ va kritik fikrlash kompetensiyalari. 4K-kompetensiyalarni mazmun-mohiyati. 4K-kompetensiyalarni rivojlantirish usullari.

## **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-AMALIY MASHG‘ULOT.**

#### **TA’LIM MENEJERNING 4K-KOMPETENSIYALARI. (2 soat)**

O‘quv jarayonini tashkil etishda 4K-kompetensiyalar. 4K-kompetensiyalarni rivojlantirish usul (Dizayn fikrlash, skamper, Nima uchun?, 5W1H) va vositalar.

### **2-AMALIY MASHG‘ULOT.**

#### **TA’LIM MENEJERIDA 4K-KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USUL VA VOSITALAR. (2 soat).**

Ta’limni raqamlashtirish sharoitida ilmiy-pedagogik faoliyatning xususiyatlari. Ilmiy-pedagogik faoltni natijalarini boshqarish konsepsiyasi.

Ta’limiy kommunikasiya va kollaborasiyalarni tashkil etish texnologiyalari. Ilmiy kommunikasiya va kollaborasiyalarni tashkil etish texnologiyalari.

### **3-AMALIY MASHG‘ULOT. ILMIY-PEDAGOGIK FAOLIYATNI BOSHQARISHDA KOMMUNIKATIV VA KOLLABORATSIYALARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI. (2 soat)**

Tinglovchilarda ilmiy-pedagogik faoliyatini boshqarishda kommunikativ va kollaboratsiyalarni tashkil etish texnologiyalaridan samarali qo‘llash malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish

### **O‘QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).




## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI**

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

### “Nima uchun?” texnologiyasi.

Nima uchun sxemasi mavjud muammoni keltirib chiqargan sabablarini aniqlashga yordam beruvchi sxemadir. Sabab-oqibat qonuniga asosan muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlamay turib muammoni hal etish qiyin. Muammoni yechimini topish uchun uni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash va yo‘qotish talab etiladi. Tinglovchilarda sabab-oqibat qonuniyati asosida fikr yuritishni tarbiyalash muhim. Ushbu sxema tinglovchilarda aynan ana shu xususiyatni rivojlantiradi. Tinglovchilarda tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

***NIMA  
UCHUN?***




muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish jarayonida qo‘llash mumkin

### “Nima uchun”? sxemasiga asosan tinglovchilar faoliyatini tashkil etish ketma-ketligi


#### 1-bosqich

Tinglovchilarni “Nima uchun”? sxemasini tuzish qoidalari bilan tanishtirish




#### 2-bosqich

Yakka tartibda ( juftlikda) muammo shakllantiriladi. Nima uchun? so‘rog‘i bilan strelka chiziladi va savolga javob yoziladi. Qayta-qayta “nima uchun” degan savol berib boriladi. Muammoni keltirib chiqargan ildiz yashiringan sababi topilguncha davom ettiriladi.



### **3-bosqich**


Tinglovchilar kichik guruhlariga birlashtiriladi, o‘z sxemalarini taqqoslashga va qo‘shimcha kiritishga imkon yaratiladi. Umumiy sxema jamlanadi.



### **4-bosqich**

Natijalar taqdimoti uyushtiriladi. Faoliyat natijalari baholanadi.

### **«Nima uchun?» texnologiyasining sxemadagi ko‘rinishi**



### **“Nima uchun”? sxemasini tuzish qoidalari**

1. Qanday piktogrammadan foydalanishni o‘zingiz hal etasiz.
2. Mulohazalarning sxematik ko‘rinishi qanday bo‘lishini o‘zingiz hal etasiz.
3. Har bir strelka fikr yo‘nalishini ko‘rsatishi lozim.

### **“VEER” texnologiyasi.**

Bu texnologiya murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli

tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

“VEER” texnologiyasi umumiy mavzuni ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarining har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

“VEER” texnologiyasi mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:

-boshida: o'z bilimlarini erkin faollashtirish;

-mavzuni o'rganish jarayonida; uning asosiylarini anglab yetish:

-yakunlash bosqichida; olingan bilimlarni tartibga solish.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi.

Afzallik - biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz.

Fazilat-ijobiy sifat.

Nuqson-nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.

Xulosa-muayyan bir fikrga, mantiqiy, qoidalar bo'yicha dalildan natajaga kelish.

### **FSMU texnologiyasi.**

(F) - fikringizni bayon eting.

(S) - sababini ko'rsating.

(M) - misol (dalil) keltiring.

(U) - umumlashtiring.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs- munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminar yakunida (tinglovchilarning o'quv seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida) yoki o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda tinglovchilarning, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egalaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatini o'rgatadi.

Ushbu texnologiyaning asosiy maqsadi tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa ifoda etib, tasdiqlovchi dallillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi:

### **1-bosqich.**

-o'qituvchi tinglovchilar bilan birga bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo'lgan muammoni, yoki o'rganilgan bo'limni belgilab oladi;

-o'qituvchi o'quv mashg'ulotida avval har bir tinglovchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo'lib ishlaniishi haqida tinglovchilarga ma'lumot beradi:

-mashg'ulot davomida har bir talaba o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o'tiladi.

### **2- bosqich.**

Har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:

F- fikringizni bayon eting.

S - fikringizni bayon etishga sabab ko'rsating.

M - ko'rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

Har bir tinglovchi yakka tartibda tarqatilgan qozozdagi FSMU ning 4 bosqichini o'z fikrlarini yozma bayon etgan holda to'latadi.

### **3 - bosqich.**

-Har bir tinglovchi o'z qog'ozlarini to'latib bo'lgach, O'qituvchi ularni kichik guruhlarga bo'linishlarini iltimos qiladi yoki o'zi turli guruhlarga bo'lish usullaridan foydalangan holda tinglovchilarni kichik guruhlarga bo'lib yuboradi:

-o'qituvchi har bir guruhda FSMU texnologiyasining 4 bosqich yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi:

-o'qituvchi kichik guruhlarga har birlari yozgan qog'ozlardan fikr va dallillarni katta formatdagi umumlashtirgan holda 4 bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etadi.

### **4 - bosqich.**

-Kichik guruhlarda avval har bir tinglovchi o'zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a'zolarini tanishtirib o'tadi. Guruh a'zolarining barcha fikrlari o'rganilgach, kichik guruh a'zolari ularni umumlashtirishga kirishadi:

-guruh a'zolari FSMUning 4 bosqichini har biri bo'yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko'radilar:

-fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir tinglovchi o'z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

### **5- bosqich.**

-Kichik guruhlarda umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar:

Guruh vakili har bir bosqichni alohida o'qiydi iloji boricha izoh bermagan holda. Ba'zi bo'limlarni isbotlash ya'ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o'tishi mumkin.

## 6 - bosqich.

-o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o'z munosabatini bildiradi;

-quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojat qiladi:

-ushbu texnologiyadan nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o'rgandingiz?

-ushbu texnologiyani o'quv jarayonida qo'llanilishi qanday samara berdi?

-ushbu texnologiyani qo'llanilishi tinglovchilarda qanday hislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?

-ushbu texnologiyaning o'quv jarayonining qaysi bosqichida qo'llanilgani ma'qul va nima uchun?

-ushbu texnologiyani dars jarayonida qo'llanilishi tinglovchilarga nima beradi va nimaga o'rgatadi?

-ushbu texnologiyani yana qanday tartibda yoki qanday shaklda o'tkazish mumkin?

-ushbu treningda asosiy vazifa nimadan iborat va hokazolar.

### “5W1H” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta'rifi, mazmuni, nima uchun ishlatiladi)	
Where?	Qaerda (joylashgan, qaerdan olish mumkin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)	



## “SWOT-tahlil” metodi.

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

<b>S – (strength)</b>	• kuchli tomonlari
<b>W – (weakness)</b>	• zaif, kuchsiz tomonlari
<b>O – (opportunity)</b>	• imkoniyatlari
<b>T – (threat)</b>	• xavflar

## “Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stady» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);

	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

### **“Insert” metodi**

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matn tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

<b>Belgilar</b>	<b>Matn</b>
“V” – tanish ma'lumot.	
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.	
“+” bu ma'lumot men uchun yangilik.	
“– ” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?	

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot

yakunlanadi.



# **III. NAZARIY MATERIALLAR**

### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### 1-MAVZU: 21-ASR KOMPETENSIYALAR VA ULARNING MAZMUNI (2 soat)

##### **Reja:**

- 1.1. Ta'lim menejeri va uning asosiy funksiyalari.
- 1.2. Umumiy, kasbiy va shaxsiy kompetensiyalar.
- 1.3. 21-asr kompetensiyalari va ularning mazmuni.
- 1.4. 21-asr kompetensiyalarning baholash modellari.

**Kalit so'zlar:** *menejer, ta'lim, oliy ta'lim, ta'lim menejeri, kompetensiya, umumiy kompetensiya, kasbiy kompetensiya, shaxsiy kompetensiya, 21-asr kompetensiyalar, kompetensiyalarni baholash modellari.*

##### **1.1. Ta'lim menejeri va uning asosiy funksiyalari.**

Ta'lim menejeri - bu ta'lim muassasasida innovatsion, ijodiy xarakterga ega bo'lgan va mavjud resurslardan oqilona foydalanishga va boshqariladigan tashkilot faoliyati samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan professional boshqaruv faoliyatini amalga oshiradigan xodim.

Menejerning asosiy belgilari:


- 1) mansabdor shaxs;
- 2) boshqaruv qobiliyatiga ega;
- 3) insonlarni boshqaradi;
- 4) boshqaruv qarorlarini qabul qiladi va amalga oshiradi;
- 5) professional darajada tayyorlangan ta'lim menejeri.

Ta'lim tizimining umumiy boshqaruv tizimiga ko'ra, barcha qo'l osti menejerlarga bo'linadi:

- quyi darajadagi menejer (ular ishlarning bajarilishini boshqaradi, masalan, bo'lim boshlig'i);
- o'rta darajadagi menejer (ma'lum bir funksional maydon uchun javobgardir va quyi darajadagi menejerlar tomonidan boshqariladi, masalan, dekan);
- yuqori darajadagi menejer (tashkilotning maqsadlari va ularga erishish strategiyasini belgilaydi, masalan, rektor).

Barcha turdagi tashkilotlar uchun eng keng tarqalgan menejer funksiyalarining uchta guruhi mavjud (rasm. 1):

- \* umumiy funksiyalar;
- \* ijtimoiy-psixologik funksiyalar;
- \* texnologik funksiyalar.



1-rasm. Boshqaruv funksiyasi tuzilmasi

## 1.2. Umumiy, kasbiy va shaxsiy kompetensiyalar.

Bugungi kunda mutaxassisning bilim va ko'nikmalari tezda yeskirmoqda, shuning uchun olimlar va o'qituvchilar aniqlaganidek, kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'lim tizimida eng istiqbolli hisoblanadi.

Kompetensiya yondashuvi "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalariga asoslanadi. Biz "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini belgilashda Ye. Zeerning pozitsiyasiga amal qilamiz, unga ko'ra:

- kompetensiyalar - bu kasbiy faoliyatni ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarning yaxlitligi, bu insonning o'z kompetensiyalarini amalda qo'llash qobiliyatidir;

- kompetentlik - bu hayotiy vaziyatlarda va kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan muammolarni samarali hal qilish qobiliyati.

Kompetensiyalarning turli tasniflari mavjud.

Baydenko V.I. quyidagi klassifikatsiyani taklif qiladi: professional kompetensiyalar va umumiy kompetensiyalar (boshlang'ich, bazaviy, universal, fanlararo, metaprofessional, yuqori professional, ekspert (juda kuchli)).

Umumiy kompetensiyalar ta'lim amaliyotining barcha turlarida olingan bilim, tajriba, qadriyatlar, moyilliklarga asoslangan qobiliyat sifatida qaraladi.

Kasbiy kompetensiyalar ish joyining talablariga muvofiq kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishga imkon beradigan qobiliyatlar sifatida qaraladi.

I. A. Zimnaya quyidagi kompetensiyalar guruhlarini aniqlaydi:

1) shaxsning o'zi, shaxs sifatida, faoliyat sub'ekti, aloqa – shaxsiy kompetensiyalar bilan bog'liq kompetensiyalar;

2) shaxsning ijtimoiy o'zaro ta'siri va ijtimoiy muhit bilan bog'liq kompetensiyalar - ijtimoiy kompetensiyalar;

3) shaxsning kasbiy faoliyati bilan bog'liq kompetensiyalar – kasbiy kompetensiyalar.

2007 yilda "Antropos-konsalting" kompaniyasi turli xil ish guruhlari uchun kompetensiyalar ro'yxatini taqdim yetadigan "rahbarning vakolatlari" (V. E. Subbotin) lug'at-ma'lumotnomasini nashr yetdi. Mutaxassislarining fikriga ko'ra, har qanday menejerning faoliyatini shartli ravishda bir nechta vakolat sohalariga bo'lish mumkin:

- **Maxsus kasbiy kompetensiyasi** – menejerga o'zi mas'ul bo'lgan jarayonlar va funksiyalarning mazmunini tashkil etadigan masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar (masalan, moliya va buxgalteriya hisobi, axborot texnologiyalari, muhandislik, kimyo, qurilish va boshqalar).

- **Biznes kompetensiyasi** - umumiy kompetensiyalar bo'lib, ular har qanday faoliyat sohasidagi menejerlar uchun zarurdir. Ushbu **kompetensiyalarga** vaziyatni tizimli tahlil qilish, strategik qarorlar qabul qilish, biznes muammolarini hal qilish uchun tashqi va ichki resurslarni jalb qilish, budjetlashtirish, daromadlar va xarajatlarni prognozlash, korxonalar xarajatlarini kamaytirish, hisobot berish va boshqalar kiradi.

- **Bilimlarni boshqarish bo'yicha kompetensiyasi** -menejerning axborot bilan ishlash, axborot oqimlarini boshqarish, tashkilotdagi o'rganish va rivojlanish jarayonlarini boshqarish qobiliyatini aks ettiradi (ma'lumot olish, konseptual, analitik fikrlash, muammolarni hal qilish, tashkiliy rivojlanish jarayonlarining mohiyatini tushunish, xodimlar tomonidan yangi bilim va ko'nikmalarni egallash jarayonini ta'minlash).

- **Yetakchilik kompetensiyasi** - menejerning o'z kuchini boshqarish, xodimlarni yo'naltirish, ularni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish qobiliyatini aks ettiradi. Bundan tashqari, yetakchilik kompetensiyalari menejerning xodimlarda berilgan vazifaga e'tiborli bo'lish, turli jamoa bilan ishlash, ularning ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash va tashkilotda hamjamiyat tuyg'usini shakllantirish qobiliyatiga ega kabi faoliyat turlarini nazarda tutadi.

- **Ijtimoiy yoki shaxslararo kompetensiya** - menejerning insonlar (jamoatchilik, aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlar) bilan maqbul munosabatlarni o'rnatish va saqlash qobiliyatini anglatadi. Ushbu kompetensiyaning mavjudligi ma'lum ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishni talab qiladi, masalan, boshqa insonlarni va ularning xatti-harakatlarini tushunish, boshqalar bilan muloqot qilish va o'zaro ta'sir qilish qobiliyatlari, insonlarda motivatsion tuyg'ularni yaratish, shuningdek nizolarni oldini olish va hal qilish kompetensiyasi.

- **Intrapersonal kompetensiyasi.** Ular o'ziga bo'lgan ishonchga, atrof-muhitga ta'sir qilish tendensiyasiga, mavjud vaziyatni yaxshilash va tubdan o'zgartirish istagiga, natijalarga va o'z-o'zini rivojlantirishga e'tibor berishga, noaniqlik sharoitida harakat qilish qobiliyatiga, o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlariga asoslangan.

Milliy akademiyalar Milliy tadqiqot Kengashi tomonidan tayyorlangan "hayot va mehnat uchun ta'lim: 21-asrda o'tkaziladigan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish" nomli hujjatda Milliy tadqiqot 21-asr ko'nikmalarini belgilaydi, bu ko'nikmalarning bir-biri bilan qanday bog'liqligini tasvirlaydi va 21-asrning ko'nikmalari haqidagi ma'lumotlarni umumlashtiradi.

21-asr kompetensiyalariga 21-asr jamiyatida muvaffaqiyat uchun muhim deb topilgan qobiliyatlar bilan bir qatorda o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilish, qiziqish va ehtiyoj ham kiradi. Barcha kompetensiyalar uchta asosiy yo'nalish bo'yicha guruhlangan:

1) ta'lim va innovatsion **kompetensiyalar**: tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish, aloqa va hamkorlik, ijodkorlik va innovatsiya;

2) raqamli savodxonlik **kompetensiyalar**: axborot savodxonligi, media savodxonlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi savodxonlik;

3) Karera va hayotiy **kompetensiyalar**: moslashuvchanlik, tashabbuskorlik va o'z-o'zini boshqarish, ijtimoiy va madaniyatlararo o'zaro ta'sir, mahsuldorlik va mas'uliyat.

Oliy ta'lim muassasasida menejerlik kompetensiyasini ko'rib chiqamiz.

Tashkilotning yuqori toifadagi menejeridan asosiy talab etiladigan vazifalaridan biri birlamchi qo'l osti xodimlarini boshqarishdir, o'rta toifadagi menejer esa, bo'limlar va ularning vazifasini boshqaradi, quyi toifadagi menejer insonlar va ularning vazifalarini boshqaradi.

Ushbu funksiyalarga muvofiq universitetning yuqori darajadagi menejerining **kompetensiyasiga** quyidagilar kiradi:

- strategik qarash (tashkiliy qarashlarni shakllantirish, ishlab chiqish va amalga oshirish); yetakchilik; rejalashtirish va tashkil etish (strategik maqsadlarni shakllantirish, strategik maqsadlarga erishish uchun strategiyani amalga oshirish); tizimli fikrlash; ishning yuqori standartlari; hissiy barqarorlik; tahlil va muammolarni hal qilish; yutuq/natijaga e'tibor qaratish; delegatsiya vakolat va javobgarlik; innovatsiya; yozma aloqa; universitet faoliyatiga yo'naltirish; tavakkal qilishga tayyorlik (xavfga tolerant munosabatda bo'lish); ta'sir; qo'l osti xodimlarini har tomonlama rivojlantirish; mulohazakorlik; og'zaki muloqot; stressga chidamlilik; mas'uliyat; raqamli ma'lumotlarni tahlil qilish.

Taktik vazifalarni hal qilish bilan shug'ullanadigan o'rta darajadagi universitet menejerining kompetensiyalari to'plamiga misol sifatida quyidalar kiradi:

- funksional rejalashtirish va tashkil etish (aniq operatsion faoliyatni amalga oshirish uchun qisqa muddatli rejalarni ishlab chiqish); yetakchilik; ishning yuqori standartlari; hissiy barqarorlik; tahlil qilish va muammolarni hal qilish;



tizimli fikrlash; raqamli ma'lumotlarni tahlil qilish; yozma aloqa; muloqotda ishonuvchanlik; qat'iyatlilik; yutuqlar/natijalarga e'tibor qaratish; delegatsiya vakolat va mas'uliyat; shaxslararo munosabatlar; ta'sir; jamoaviy ish; universitetga sodiqlik; mas'uliyat; tafsilotlarga e'tiborlilik; moslashuvchanlik; stressga chidamlilik va h.k.

Quyida darajadagi menejerning **kompetensiyalari** ro'yxatiga quyidagilar kiradi:

- operatsion rejalashtirish; guruhdagi liderlik; boshqaruv nazorati (xodimlarni monitoring qilish, baholash va maslahat berish); ishning yuqori standartlari; hissiy barqarorlik; yutuq/natijaga e'tibor qaratish (maqsadlarni belgilash va standartlarga erishish); mas'uliyat; muloqotda ishonuvchanlik; universitet jarayonlarini tushunish va bilish; axborotlarni yig'ish; tahlil qilish va muammolarni bartaraf qilish; jamoaviy ish; yozma aloqa; tafsilotlarga e'tiborlilik; moslashuvchanlik; stressga qarshilik.

### **1.3. 21-asr kompetensiyalari va ularning mazmuni.**

Bugungi kunda sanoat davridan uzoqlashib, axborot va raqamli asrga o'tmoqdamiz. Bugungi kunda barcha muntazam operatsiyalar robototexnika va raqamli texnologiyalar tufayli avtomatik tarzda amalga oshirilishi mumkin.

Bu shuni anglatadiki, ta'lim tizimida bilim va tajribalarni uzatishga qaratilgan usul va vositalardan foydalana olmaydi. Ta'lim usullari o'zgarishi kerak.

21-asr kompetensiyalari bugungi kunda ko'plab o'qimishli odamlarning ye'tiborini tortadigan alohida sohadir. Konsepsiyaning mohiyati shundan iboratki: sanoat davrida savodxonlikni belgilovchi asosiy ko'nikmalar o'qish, yozish va arifmetika yedi. 21-asrda urg'u o'zgarib bormoqda.

Milliy Akademiyalar Milliy Tadqiqot Kengashi tomonidan tayyorlangan "Hayot va mehnat uchun ta'lim: XXI asr uchun o'tkaziladigan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish" nomli hujjatda Milliy tadqiqot XXI asr kompetensiyalarini belgilaydi va ushbu kompetensiyalari bir-biri bilan qanday bog'liqligini tasvirlaydi, 21-asr kompetensiyalariga oid dalillarni umumlashtiradi. 21-asr kompetensiyalari 21-asr jamiyatida muvaffaqiyatga yerishish uchun zarur deb topilgan ta'lim qobiliyatlari va moyilliklarini o'z ichiga oladi. Barcha kompetensiyalarni uchta asosiy yo'nalishga guruhlangan:

1) Karera va hayotiy ko'nikmalar: moslashuvchanlik va moslashuvchanlik, tashabbuskorlik va o'zini o'zi boshqarish, ijtimoiy va madaniyatlararo o'zaro ta'sir, samaradorlik va mas'uliyat.

Karera va hayotiy kompetensiya hayotingizni boshqarishdir: boshqarish, ya'ni. sog'lig'ingizni - axloqiy, ijtimoiy, psixologik, yekologik, intellektual, jismoniy, genetik va baquvvat yarating. Karyera va hayotiy kompetensiya - bu o'z hayotini, taqdirini loyihalashda savodxonlik, hamkorlik qilish qobiliyatidagi savodxonlik:

- kim bilan munosabatlar (hamkorlik) va martaba qurish;
- loyihalaringizni qanday amalga oshirish (tashkiliy madaniyat);

- o‘zingiz bilan munosabatlarni qanday o‘rnatish kerak (keyin jinoyat va korrupsiya yo‘qoladi);

- boshqa odam bilan munosabatlarni qanday qurish kerak (keyin tajovuz yo‘qoladi);

- boshqa xalqlar bilan munosabatlarni qanday o‘rnatish kerak (keyin milliy nizolar va urushlar, terrorizm yo‘qoladi);

- tabiat bilan munosabatlarni qanday o‘rnatish kerak (keyin yekologik ofatlar yo‘qoladi).

2) Ta’limiy va innovatsion kompetensiyalar: tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish, muloqot va hamkorlik, ijodkorlik va innovatsiya.


3) Raqamli kompetensiya: raqamli savodxonlik, mediasavodxonlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) savodxonligi.

Raqamli kompetensiyalar uchta asosiy sinfga bo‘linadi:

- raqamli iste’mol - turli raqamli resurslardan (Internet, ijtimoiy tarmoqlar, davlat xizmatlari, teletibbiyot va boshqalar) foydalanishga (iste’mol qilishga) olib keladigan muayyan hayotiy vaziyatlar doirasida raqamli kompetensiyalardan foydalanish;

- raqamli makonda hayot - foydalanuvchining doimiy bilim, ko‘nikma, motivatsiya, mas’uliyat (axborot qidirish, raqamli qurilmalardan foydalanish) asosida hayotning turli sohalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ishonchli, samarali va xavfsiz tanlash va qo‘llash qobiliyati. , ijtimoiy tarmoq funksiyalaridan foydalanish, moliyaviy operatsiyalar, onlayn xaridlar, axborotni tanqidiy qabul qilish, multimedia kontentini ishlab chiqarish, qurilmalarni sinxronlashtirish va h.k.);

- Raqamli xavfsizlik - foydalanuvchilarga raqamli dunyoda o‘z xavfsizligini kafolatlashi kerak bo‘lgan vositalar, yehtiyot choralari va odatlar yig‘indisi (shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, kuchli parollar, huquqiy tarkib, xulq-atvor madaniyati, obro‘-ye’tibor, axloq, ma’lumotlarni saqlash, zaxira nusxalari va boshqalar).



Learning and Innovation "The 4 C's"	Digital Literacy	Career and Life
Critical thinking & problem solving	Information literacy	Flexibility & adaptability
Creativity and innovation	Media Literacy	Initiative & self-direction
Communication	ICT Literacy	Social & cross-cultural interaction
Collaboration		Productivity & Accountability
		Leadership & responsibility

## 2-rasm21-asr kompetensiyalar.

21-asr kompetensiyalariga boshqa yondashuvlar ham mavjud. Rossiya olimlari 21-asrning barcha kompetensiyalarini 4 guruhga bo'lishdi:

- "Muammolarni hal qilish": diagnostika, tadqiqot, muammolarni aniqlash va tahlil qilish; o'z fikringizni shakllantirish va qaror qabul qilish; rejalashtirish; natijalarni tashkil yetish, nazorat qilish va baholash;

- "Axborot bilan ishlash": axborotni izlash va tahlil qilish, shu jumladan AKTdan foydalanish, axborotni baholash; axborotni o'zgartirish va yaratish; axborot almashinuvi (biznes aloqasi);

- "Jamoada ishlash va odamlarni boshqarish" Jarayonlar shu qadar murakkablashadiki, jamoaviy ishsiz ko'pgina vazifalarni bajarishning iloji bo'lmaydi. Ba'zi kompaniyalar yempatiya va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha kursni o'tashdi (bu siz "quchoqlamoqchi bo'lgan"larni ham, kamroq fikrlaydigan o'rtoqlarni ham o'z ichiga olishi mumkin); bu soha korporativ treningning "yetakchilari" qatorida qoladi.

- "O'z-o'zini boshqarish": o'zgarish va noaniqlik sharoitida ishlash, o'z-o'zini tashkil qilish va o'zini o'zi boshqarish; kasbiy rivojlanish va martaba.

### 1.4. 21-asr-kompetensiyalarni baholash modellari.

2. XXI asr kompetensiyalarning turli modellari mavjud. Jadvalda turli xil kompetensiya modellari keltirilgan va ishbu modellardagi umumiy kompetensiyalar ta'kidlangan.

3. 1-jadval.

4. Umumiy kompetensiyalar kontekstida XXI asr kompetensiya modellari

5.

"20 qirra" kompetensiya modeli	Yetakchilik. Tashabbuskorlik. Natijaga e'tibor qaratish. O'z-o'zini rivojlantirish. Tizimli fikrlash. Ishonchli aloqa o'rnatish.
--------------------------------	---

<b>T.Yu.Bazarovning kompetensiya modeli</b>	Tizimli fikrlash. Strategik fikrlash. Faoliyatning ma'lum bir natijasiga e'tibor qaratish. Odamlar bilan o'zaro munosabatlarning samaradorligi. Muvaffaqiyatli motivatsiya. Tashabbuskorlik.
<b>Daniel Pinkning "Muvaffaqiyat uchun 6 "qobiliyati"</b>	Ma'noni ko'rish va o'zini vazifasini rivojlanish sifatida tushunish qobiliyati. Mantiqdan tashqariga chiqish, his-tuyg'ular va sezgidan foydalanish qobiliyati. Keng va ijodiy fikrlash qobiliyati.
<b>O.S.Vixanskiyning "7S konsepsiyasi"</b>	Kreativnost, uverenost v sebe, kommunikativnost, kriticheskoe myshlenie (Creativity, confidence, communication, critical thinking)
<b>L.M. va S.M.Spensornlarning kompetensiya modeli</b>	Yutuqqa yo'naltirish. Jamoaviy ish va hamkorlik. Tashabbus. Boshqalarning rivojlanishi. O'z-o'ziga ishonch. Jamo'etakhiligi.

2006 yilda «Firma sekreti» jurnalining №37-sonida DeTech kompaniyasining Rossiyada o'tkazgan tadqiqot natijalari chop etilgan. Unda o'rta darajali (bo'g'in) muvaffaqiyatli menejerlarda 20 ta kompetensiyalar aniqlagan. Tadqiqot 9 oy davom etgan va unda 40 ta yetakchi Rossiya va G'arb kompaniyalari ishtirok etgan. Tadqiqot doirasida Rossiyadagi top-menejerlar va muvaffaqiyatli o'rta darajali (bo'g'in) menejerlar bilan 150 ga yaqin intervyu o'tkazilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Rossiyada menejerlarning muvaffaqiyatli ishlashi uchun muhim bo'lgan 20 ta kompetensiyadan iborat bo'lgan "20 qirra" o'rta bo'g'in menejerlari uchun standart kompetensiya modeli ishlab chiqilgan.

Model konsepsiyasi "kompetensiya" atamasini "biznesning ishonchliligi, oddiy sharoitlarda ham, ekstremal vaziyatlarda ham muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli va aniq amalga oshirish qobiliyati" sifatida tushuntirishdan kelib chiqqan.

Barcha kompetensiyalar 5 guruhga bo'lingan.



1-rasm. “20 qirra” kompetensiya modeli.

Model bo‘yicha kompetensiyalarni baholash uchun “Diip” (DEEP) so‘rovnomasi qo‘llaniladi. Ushbu so‘rovnoma samarali ish faoliyatini yuritish uchun muhim bo‘lgan inson qobiliyatini baholashga imkon beradi.

Aspekt, shkala va kompetensiyalar ifodalanganlik darajasini belgilaymiz:

- 1...3 Past. Aspekt sust ifodalangan, deyarli ko‘zga ko‘rinmaydi va rivojlantirishni talab qiladi.
- 4 O‘rtadan pastroq. Kam hollarda ifodalanishi mumkin.
- 5...6 O‘rta. Aspektning rivojlanganlik maqbul darajasiga ishora qiladi.
- 7...8 O‘rtadan yuqori. Rivojlanganlikning yuqori darajasi.
- 9...10 Yuqori. Aspekt yaqqol ifodalangan va xulq-atvorda ustunlik qiladi.

Endi boshqaruv qo‘nikmalarni ko‘rib chiqamiz.

Rejalashtirish va tashkil qilish – O‘zi va boshqalar uchun maqsadga erishishga kerakli harakatlar yo‘nalishi va tartibini belgilaydi. Vaziyat o‘zgarish ehtimolini hisobga olgan holda rejalar tuzadi. Resurslarni samarali taqsimlaydi.

Insonlarni boshqarish – Xodimlarga vazifalar qo‘yadi. Ishlarni taqsimlaydi.

Qo'yilgan maqsadlarga erishini nazorat qiladi.

Xodimlarni rivojlantirish – Xodimlarning shaxsiy va kasbiy sifatlar, va ish faoliyatidagi intilishlarini hisobga oladi. Xodimlar rivojlanishidagi taraqqiyotni kuzatib boradi.

Yetakchilik (liderlik) – Boshqalarni qo'yilgan vazifalar bajarilishiga motivatsiya beradi. Bu jarayonda tegishli shaxslararo muloqot uslublar va usullardan alohida yoki guruhdagi insonlarni (qo'l ostidagi, maqomi bir xil, yuqori turuvchi xodimlarni) boshqarishda foydalaniladi.

### **Savollar:**

1. Ta'lim menejerining asosiy vazifalari nimadan iborat?
2. Yuqori darajadagi universitet ta'lim menejerining asosiy vazifalari nimadan iborat?
3. O'rta darajadagi universitet ta'lim menejerining asosiy vazifalari nimadan iborat?
4. Quyi darajadagi universitet ta'lim menejerining asosiy vazifalari nimadan iborat?
5. 21-asr kompetensiyalarining qanday modellarini bilasiz?
6. 21-asr ta'lim menejerining kompetensiyalarini sanab o'ting.
  - a. XXI asr ta'lim menejeri kompetensiyalarni baholash uchun qaysi modellar sizga ma'lum?
7. "20 qirra" kompetensiyalar modeli qachon ishlab chiqilgan?
8. "20 qirra" kompetensiyalar modeli kim tomonidan ishlab chiqilgan?
9. "20 qirra" kompetensiyalar modeli nima uchun ishlab chiqilgan?
10. "20 qirra" kompetensiyalar modelining o'ziga xosligi nimadan iborat?
11. "20 qirra" kompetensiyalar modelida boshqaruv ko'nikmalari nimalardan iborat, ularga ta'rif bering?
12. "20 qirra" kompetensiyalar modelida shaxslararo muloqot ko'nikmalari nimalardan iborat, ularga ta'rif bering?
13. "20 qirra" kompetensiyalar modelida individual ko'nikmalari nimalardan iborat, ularga ta'rif bering?
14. "20 qirra" kompetensiyalar modelida qarorlar qabul qilish ko'nikmalari nimalardan iborat, ularga ta'rif bering?
15. "20 qirra" kompetensiyalar modelida o'zini-o'zi rivojlantirish ko'nikmalari nimalardan iborat, ularga ta'rif bering?

## **2-MAVZU. 4K-KOMPETENSIYALAR VA ULARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI (2 soat)**

### **Reja:**

2.1. 4K-kompetensiyalar: kommunikativ (muloqot), kollobarativ (hamkorlikdagi), kreativ va kritik fikrlash kompetensiyalarining mohiyati.

2.2. Ta'lim menejerida 4K-kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajriba. Boshqaruv xodimlarida 4K-kompetensiyalarini rivojlantirishning ahamiyati.

2.3. Ta'lim menejerining 4K-kompetensiyalarini rivojlantirish usul va vositalari hamda ularni baholash.

**Asosiy atamalar:** *4K-kompetensiyalar, kommunikativ (muloqot) kompetensiyalar, hamkorlikdagi (kollobarativ) kompetensiyalar, ijodiy (kreativ) kompetensiyalar, tanqidiy fikrlash kompetensiyalari.*

### **2.1. 4K-kompetensiyalar: kommunikativ, hamkorlikdagi (kollobarativ), ijodiy (kreativ) va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarining mohiyati.**

Har qanday mutaxassis tanlagan kasbida muvaffaqiyat qozonish uchun ikki turdagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

- professional (kasbiy), "qattiq" ("qiyin") ko'nikmalar, Hard skills. Bularning barchasi hunarmandchilik va inson shug'ullanadigan faoliyat bilan bevosita bog'liq bo'lgan ko'nikmalardir;

- qo'shimcha, "moslashuvchan" ("egiluvchan") ko'nikmalar, Soft skills (umumiy yoki kasbiy mahorat). Soft skills egallangan ko'nikmalar sifatida qaraladi, ya'ni insonning o'z shaxsiy hayotiy tajribasiga asoslangan rasmiy, informal (axboriy) va norasmiy ta'lim orqali olgan va hayoti davomida uzluksiz kasbiy rivojlanishida foydalanishi uchun qobiliyatlari hisoblanadi.

Jahon iqtisodiy Forumida (2020 yil) kompetensiyalarning yangi modeli taqdim etildi. Modelning Markaziy qismini Soft skills egalladi, aynan 4K-kompetensiyalar:

- kreativ kompetensiyasi,
- kritik fikrlash kompetensiyasi,
- kommunikativ kompetensiyasi,
- kollobarativ kompetensiyasi.

## 1-jadval.

Tayanch savodxonlikning turlari	Kompetensiyalar	Xarakter fazilatlari (sifati)
Til	Kritik fikrlash	Qiziquvchanlik
Son (raqam)	Kreativ	Tashabbuskorlik
Tabiiy-ilmiy	Kommunikativ	Qat'iyatlilik
AKT-savodxonligi	Kooperatsiya	Moslashuvchanlik
Moliyaviy		Yetakchilik
Fuqarolik va madaniy		Ijtimoiy va madaniy xabardorlik

### 4K modeli



1-rasm. "4K" modeli

“Критик фикрлаш” atamasi J.Piaje, Dj.Bruner, L.S.Выготский va boshqa taniqli psixologlarning ishlaridan uzoq vaqtdan beri ishlatilib kelmoqda. Kritik fikrlash asosini tushunish uchun K.Popper asarlarida shakllangan yondashuvga e’tiborni qaratamiz: biz ma’lumotlarni to’plash orqali emas, balki qilingan xatolarimizdan o’rganamiz.

Критик фикрлашга bir qancha ta’riflarni keltiramiz.

“Критик фикрлаш - bu axboriy haqiqati (realligi) bilan samarali ta’sir o’tkazish imkonini beradigan fikrlash strategiyalari va kommunikativ fazilatlar tizimidir” (I.O.Zagashv).



“*Kritik fikrlash* – aqliy harakatlar ketma-ketligi hisoblanib, uning maqsadi tekshirishga yo‘naltirilgan mulohazalar yoki mulohazalar tizimining qabul qilinayotgan faktlar, me‘yorlar yoki qadriyatlarga mos kelish-kelmasligini aniqlashdan iboratdir” (B.N.Bryushinkina va B.I.Markova).

Kritik fikrlashning asosiy elementlari sifatida bir nechta ko‘nikmalarni ajratish mumkin:

1. **Tahlil.** Bayonotlar, savollar, dalillar o‘rtasidagi aloqalarni topish qobiliyati.

2. **Baholash.** Bayonotlarning ishonchliligini, dalillarga ishontirishni baholash qobiliyati.

3. **Tushuntirish (argumentatsiya).** O‘z fikrlari/usullarini tushuntirish, o‘z xulosalarini himoya qilish qobiliyati.

4. **Gipotezalarni chiqarish (qarorlarni rejalashtirish).** Gipotezalarni shakllantirish va o‘zlarining xulosalar chiqarishi, ma‘lumot yetishmasligini aniqlash qobiliyati.

5. **O‘z-o‘zini boshqarish (nazorat).** Refleksiya, o‘z-o‘zini tekshirish va tuzatish (korreksiya).

**Kreativ (ijodiy) fikrlash** - bu insaytlarga (tushunchalarga), yangicha yondashuvlarga, yangicha qarashlarga olib keladigan fikrlash turi bo‘lib, umuman olganda, bu narsalarni tushunish va ko‘rishning yangicha usulidir.

*Kreativlik (ijodkorlik)* - bu muammolarni hal qilishda (shu jumladan kasbiy (professional)) prinsipial jihatdan yangi yondashuvlarni, sub‘ekt oldida turgan savollarga javoblarni ishlab chiqish yoki bilimlarni qo‘llash, sintez qilish va o‘zgartirish orqali g‘oyalarni ifodalash qobiliyatidir (Lucas B., Claxton G., Spencer E. P.).

Kreativlik (ijodkorlik)/ijodiy fikrlashni baholashni ishlab chiqishda B.Lukas modeliga tayanish mumkin, unda ijodkorlikning (kreativlikning) alohida komponentlari ajratib ko‘rsatilgan. Ushbu modelda taqdim etilgan ijodkorlikning tuzilishi rossiyalik ishlab chiquvchilar tomonidan topshiriq (vazifa) ustida ishlash jarayonida talabaning harakatlarini baholashga eng mos kelishi uchun biroz o‘zgartirildi.

1. *Qiziquvchanlik (topshiriqqa faol qiziqish):*

- atrof-dagi olamga qiziqish (topshiriq (vazifa) vaziyatlari) va atrof-olam haqida ko‘proq ma‘lumotga ega bo‘lish istagi (topshiriq (vazifa) vaziyatining turli jihatlarini haqida; assotsiatsiyani talaffuz qilish);

- o‘z savollariga mustaqil ravishda javob qidirish. Yangi ma‘lumotni (shu jumladan kutilmagan manbalarda) faol qidirish.

2. G‘oyalarni (tasavvurlarni) yaratish. O‘z g‘oyalarini ishlab chiqarish. Bu

yerda ikkita jihat ajralib turadi:

- taklif etilgan g'oyalarning o'ziga xosligi;
- moslashuvchanlik yoki harakatchanlik, ko'p sonli g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati.

3. Taklif etilgan g'oyalarni rivojlantirish:

- taklif etilayotgan g'oyalarni turli pozitsiyalardan baholash va g'oyani takomillashtirish yoki undan voz kechish uchun ularning kuchli hamda zaif tomonlarini izlash;
- o'zgargan sharoitlarda va tadqiqot ob'ekti haqida yangi ma'lumotlar paydo bo'lishi bilan o'z faoliyatini tezda tiklash qobiliyati.

**Kommunikatsiya** (aloqa, muloqot) talabning o'qituvchiga, kursdoshlariga savollar berish va ularning savollariga ular uchun tushunarli tarzda javob berishi, agar kerak bo'lsa, xabarlarida yoki dalillarda tushunarsiz bo'ladigan narsalarga aniqlik kiritish qobiliyatida, o'z navbatida, o'z g'oyalarni va takliflarini tushuntirish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Ushbu kompetensiya/ko'nikmaning tuzilishi quyidagicha taqdim etiladi.

1. *Muloqotga tayyorlik*: muloqotga kirishda qo'rquvning yo'qligi, muloqotni boshlash, bironing savoliga javob berishga tayyorlik, savol berishga tayyorlik.

2. *Muloqotning maqsadi va kontekstiga hamda hamkorga moslashish*: turli xil aloqa holatlarida, hamkorning hissiy holatiga e'tibor qaratib, turli xil og'zaki (verbal) va og'zaki bo'lmagan (noverbal) aloqa vositalarini tanlash qobiliyati.

3. *Ishontiruvchi muloqot*: muloqot (kommunikatsiya) maqsadiga erishish uchun og'zaki (lug'at boyligi va til qoidalarini bilish) va og'zaki bo'lmagan vositalardan (imo-ishoralar, yuz ifodalari (mimika), intonatsiya) foydalanish.

